

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKİSTAN
LANGUAGE & CULTURE

2023 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:
TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:
LANGUAGE AND CULTURE

2023 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Bosh muharrir:	Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinnbosari:	Nodir Jo'raqo'ziyev
Mas'ul kotib:	Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyor Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief:

Nodir Jurakuziev

Executive secretary:

Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saldov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature,
103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoly-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Muhittin Gümüş

- Türkiye Türkçesi ve Özbekçe söz Varlığında Göz Kelimesiyle
Oluşan Deyimler ve Birleşik Kelimeler.....6

Jo'ra Xudoyberdiyev

- Birinchi turkologiya qurultoyi va plenumida turkiy tillardagi
singarmonizm muhokamasi.....26

Dilafruz Xudoyqulova

- Ingliz va o'zbek tillaridagi farmatsevtika terminlarini kognitiv-
semantik aspektda tadqiq etish.....70

Sanjar Mavlyanov

- O'zbek tili diplomatik terminlarining semantik tasnifi.....83

Adabiyotshunoslik

Узоқ Жұрақулов, Мақпал Оразбек

- Әдебиеттегі «көлеңке» архетипі (Абай мен Оскар Уайлд
шығармаларындағы «жан» мен «көлеңке» табигаты).....102

Hasan Bekiroğlu

- Nazar Eşankul'un "İstila" Hikâyesi'ndeki Halk Kültürü
Unsurları İncelenmesi.....113

Orzigul Hamroyeva

- Fitratning aruz va milliy she'r tizimi xususidagi mulohazaları.....130

Fan. Ta'lim. Metodika

Gulnara Iskandarova

- Oliy ta'limda sifat va malakaga asoslangan baholash.....142

CONTENT

Linguistics

Muhittin Gumush

- Idioms and Compound Words Formed with the Word Eye in Turkey Turkish and Uzbek Vocabulary.....6

Jura Khudoyberdiev

- Discussion of Synharmonism in Turkic Languages at the First Turkology Congress.....25

Dilafruz Khudoykulova

- The topicality of the research of pharmaceutical terms in English and Uzbek in cognitive-semantic aspects.....70

Sanjar Mavlyanov

- Semantic Classification of Uzbek Diplomatic Terms.....83

Literature

Uzok Jorakulov, Makpal Orazbek

- Archetype of "shadow" in literature (The nature of "soul" and "shadow" in the works of Abai and Oscar Wilde).....102

Hasan Bekiroglu

- Investigation Of Folk Culture Features In Nazar Eşankul's "Investment" Story.....113

Orzigul Hamroeva

- Fitrat's comments on Aruz and national poetry system.....130

Science. Education. Methodology

Gulnara Iskandarova

- Quality and Skill-based Assessment in Higher Education

142

Ingliz va o'zbek tillaridagi farmatsevtika terminlarini kognitiv-semantik aspektida tadqiq etish

Dilafruz Xudoyqulova¹

Abstrakt

Maqolada farmatsevtika terminlarining eng qadimgi tushunchalar sifatida til sohiblarining bilimi, tajribasi, tafakkuri, idroki bilan bog'liqligi yoritilgan. Farmatsevtika terminlari, xususan, ingliz va o'zbek tilidagi dori nomlarini tadqiq qilishda kognitiv-semantik aspektida yondashish til sohiblarining tibbiy bilim, ko'nikma, malakalarini tahlil qilishda, tafakkuri, idrok darajasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Farmatsevtika terminlari lingvistik-filologik aspektida tadqiq etilgani, monografik plandagi kognitiv-semantik tahlilni amalga oshirish zarurati va dolzarbligi qayd etilgan.

Ingliz tilidagi farmatsevtika terminlarining lug'atlarda va korpuslarda, o'zbek tili dori noomlarining qomusiy olimlar asarlarida, tarixiy-badiiy manbalarda, lug'atlarda jamlangani, farmatsevtika terminlari hajmi jihatidan o'zbek tili keng imkoniyatlarga ega ekanligi aytib o'tilgan. Ingliz va o'zbek tili farmatsevtika terminlari tadqiqiga doir taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *farmakogniziya, farmakologiya, farmatsevtika, dori nomlari, dorivor ashyo, dorivor giyoh, tibbiy soha, tibbiy termin, o'z qatlam, o'zlashgan qatlam, qomusiy manba, korpus, parallel korpus, tezaurus.*

Kirish

Dunyo xalqlari yer yuzining turli qismlarida, har xil ijtimoiy-siyosiy muhitda hayot kechiradilar. Kishilik jamiyatidagi dunyoqarash madaniy munosabatlar, mental ong makon va zamon xususiyatlari uyg'unligida shakllangan hamda takomillashib bormoqda. Bu xususiyatlar tashqi omil hisoblanib, deyarli barcha sohalar terminologiyasida o'z ifodasini topgan.

Kishilik taraqqiyotining ilk davrlaridan, ong, madaniyat,

¹Xudoyqulova Dilafruz Kabiljanovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Toshkent Farmatsevtika instituti.

E-pochta: khudoyqulova-1982@mail.ru

ORCID ID: 0009-0005-1937-5237

Iqtibos uchun: Xudoyqulova, D. 2023. "Ingliz va o'zbek tillaridagi farmatsevtika terminlarini kognitiv-semantik aspektida tadqiq etish". *O'zbekiston: til va madaniyat* 4: 70 – 82.

til shakillangan bosqichlaridan beri qo'llanib kelayotgan tushunchalardan biri tibbiy terminlari. Tibbiy terminlar shu fonda keng qo'llanadigan tushunchalar bo'lib, sohaning taraqqiyot darajasini ko'rsatib beradi. Tibbiy terminologiyaning asosini farmatsevtika terminlari tashkil etadi.

Dori nomlari qadimdan mavjud bo'lib, kishilarning salomatlik ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Kasallik, ko'rinishlari, belgilari qayd etilgan dastlabki davrlardayoq uning davosini topishga harakat qilingan. O'sha davr ijtimoiy turmush tarzi, xalq dunyoqarashi, e'tiqodidan chekinilgan holda davolash choralar, usullari izlab topilgan. Dorishunoslik tarixini kasallikka e'tibor berilgan dastlabki davrlardan boshlangan, deyish to'g'ri bo'ladi.

Farmatsevtikaga oid tushunchalar kasallikni bartaraf etish uchun amalga oshirilgan sa'y-harakatlar natijasida shakllandi. Dori nomlari ingliz va o'zbek xalqlarining ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti davomida yuzaga kelib, rivojlanib bordi. Xalqning farmakognitiv bilimi, tafakkuri, idrok darajasi asosida farmatsevtik tushunchalar tizimi shakllandi. Dori nomlarida xalqning tabobat borasidagi kuzatishlari, tajribasi, bilimi o'z ifodasini topgan. Shu bois farmatsevtika terminlarini kognitiv-semanticik jihatdan tahlil qilish soha taraqqiyotini belgilashda, termin va til sohibi o'rtasidagi aloqadorlikni yoritishda, davo choralarini takomillashtirishda muhim o'rinni tutadi.

Farmatsevtika terminlarining o'rganilishi

Jahon tilshunosligida farmatsevtika terminlari turli aspektlarda tadqiq etilgan. Farmatsevtika terminlari terminologiya tizimi, termin va boshqa lug'aviy birliklar farqi yoritilgan izlanishlarda, biologiya terminlariga oid tadqiqotlarda, tibbiy terminlar tadqiq qilingan ishlarda tahlil etilgan [Velichkova 2006, 165; Oznigin 2010, 152; Xusanov 1982, 188; Qosimov 1982, 156; Mirahmedova 2010; Abdulkairova 2021].

Bevosita farmatsevtika terminlariga bag'ishlangan tadqiqotlarni quyidagi semantik guruhlarga ajratdik:

1. Muayyan manba asosida olib borilgan tadqiqotlar. Farmatsevtikaga oid bir qator tadqiqotlar manbalari asosida olib borilgan. Masalan, M.N.Chernyavskiy Gippokrat asarlarida qayd etilgan farmatsevtika terminologiyasini tadqiq qildi [Chernyavskiy 1996, 186]. A.Saidnomanov tadqiqotlarda ham manbalarga murojaat qilingan. Tadqiqotchi o'zbek tilidagi tibbiyotga oid lug'atlar va ularning bir-biridan farqli jihatlari haqida to'xtalib o'tgan

[Saidnomanov 2020, 32-34].

2. Bir til doirasidagi tadqiqotlar. Farmatsevtika terminlari bir til doirasida o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar ikki yo'nalishga ajratildi: sinxron va diaxron aspektidagi tadqiqotlar. A.Qosimov hozirgi o'zbek tilidagi framatsevtika terminlariga oid izlanish olib bordi [Qosimov 1982, 156]. Y.B.Neyfax nemis tilidagi farmatsevtika terminologiyasini sinxron aspektida o'rgangan [Neyfax 1996].

3. Bir necha til doirasidagi tadqiqotlar. Bu guruhdagi tadqiqotlar qiyosiy va chog'ishtirma aspektidagi tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Farmatsevtika terminlari chog'ishtirma aspektida o'rganilgan. Turli tizimga mansub tillardagi farmatsevtika terminlarining leksikografik, funksional-semantik xususiyatlari tadqiq etilgan [Xudoqulova 2022]. Bu tipdag'i tadqiqotlar, asosan, ikki yoki uch tilni qiyoslash, chog'ishtirish asosida amalga oshirilmoqda.

4. Metodika yo'nalishidagi tadqiqotlar. Bir qator tadqiqotlar farmatsevtika terminlarini o'rgatishga bag'ishlangan. M.Israilova farmatsevtika terminlarini lotin tilini o'qitish jarayonida tibbiyot oliy ta'lif muassasasi talabalarini intellektual-madaniy rivojlantirishning didaktik asoslarini takomillashtirish masalalarini yoritish negizida o'rgandi. Ishda lotin tili va tibbiy terminlogiya, dori nomlarining intellektual-madaniy rivojlanishdagi o'rni masalalariga e'tibor qaratilgan [Israilova, 2018]. G.Yaxshiboyeva farmatsevtika terminlarini o'rgatishda o'qish va yozish malakalarini rivojlantirishning zamonaviy metodlariga bag'ishlangan tadqiqotini yaratdi. Tadqiqotda farmatsevtika terminlarining derivatsion tizimi, affiksal, morfemik-morfologik, semantik, funksional-semantik va sintaktik usullardagi yasalish xususiyatlari yoritilgan. Terminlar tarjimasi bilan bog'liq masalar, farmatsevtika terminlari lug'atlarining qayta nashrlari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan [Yaxshiboyeva 2023].

Farmatsevtika terminlariga bag'ishlangan tadqiqotlar, asosan, lingvistik-nazariy, metodologik aspektida olib borilgan. Mazkur ishlarda farmatsevtik terminlarining kognitiv-semantik xususiyatlariga deyarli e'tibor qaratilmagan. Tadqiqotlar mavzusidan kelib chiqqan holda bunday maqsadning qo'yilishiga zarurat tug'ilмаган. Dori nomlarining kognitiv-semantik xususiyatlari monografik planda tadqiqot predmeti sifatida belgilanmagan.

Farmatsevtika terminlarining kognitiv-semantik xususiyatlari

Farmatsevtika tushunchalari har bir xalqning davolash nazariyasi, usullari, vositalarining mahsullari o'laroq yuzaga keldi. Xususan, ingliz va o'zbek tillaridagi farmatsevtika terminlari ekstralolingvistik va intralingvistik omillar asosidagi taraqqiyot xususiyatlarini namoyon etadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi farmatsevtika terminlari bu ikki madaniyatda tibbiy sohaning taraqqiyot darajasini namoyon etish bilan bir qatorda xalqlarning dunyoqarashi, milliy-madaniy munosabatlaridagi umumiyligi hamda farqli belgilarni aks ettiradi.

Farmatsevtika terminlarini, dastavval, ikki guruhga ajratish mumkin: tabiiy dorivor ashyolar; sun'iy dorilar. Xalqning mental tafakkuri tabiiy dorivor ashyolar nomida nisbatan aniqroq ko'rinishda namoyon bo'ladi. Dori vositalarini umumlashtirib nomlovchi terminlar, ayrim dori nomlarida ingliz va o'zbek tillarida o'xshash belgilar kuzatiladi: masalan, *herbal products / tabiiy mahsulotlar*. *Herbal medicines* – tabiiy dori vositalarining ingliz tilidagi nomlanishi. *Herbal medicines/rroducts* – o'simlikka bog'liq dori vositalari, mahsulotlari nomlaridir.

Arsenis / margimush terminlarida ingliz va o'zbek xalqlarining doriga bo'lgan umumiyligi bahosi o'z ifodasini topgan. *Arsenis* yunoncha so'z bo'lib, "o'tkir" degan ma'noni anglatadi. Mendeleyev davriy sistemasining V guruhiga mansub, 33-tartib raqamida joylashgan kimyoviy element, *margimush* yoki mish'yak, o'tkir metalloid. *Margimush* xalq idrokida presuppozitsiya asosida "sichqonni ham o'ldiradigan darajada o'tkir" ma'nosini anglatadi. *Margimush* forscha-tojikcha so'z "sichqon o'limi; sichqon o'ldiruvchi" ma'nolarini bildiradi. 1. To'q kulrang kristall, ba'zan amorf holdagi mo'rt, qattiq metall. 2. Shu moddadan tayyorlangan preparat (tibbiyot va texnikada ishlataladi) [O'TIL, II, 144]. Margimushning ruscha nomi mish'yak ham forscha-tojikcha asosning ma'nosiga muvofiq keladi. Dori nomi denotatni ifodalashdan tashqari ingliz va o'zbek tili sohiblarining dori kuchi, quvvatiga bergen bahosini ham ifoda etadi.


Ingliz tilidagi ba'zi dori nomlari bajaradigan funksiyasiga ko'ra nomlangan. Masalan, *expectorant* – balg'am ko'chiruvchi, shamollashga qarshi vosita, termin "ko'krakdan chiqib ketish" degan lug'aviy ma'noni anglatadi.

O'zbek tilidagi *čurni* surgi dorisi funksional - semantik xususiyatiga ko'ra nomlangan. Ammo bu dori nomi hozirda kam

ishlatiladi. Mumtoz manbalarda faol qo'llangan.

Clove / qalampirmunchoq (gvozdika). Clove – indoneziyadagi daraxt, slavus – “nina, tirnoq” ma’nosidagi so’zdan kelib chiqqan. Inglizlar dorivor o’simlikning ninasimon o’tkir uchlariga asoslanib nomlagan bo’lsa, o’zbeklar dorivor o’simlik mevasining shakli, ta’mi (qalampir) va quritib, ipga tiziladigan (munchoq) holatiga ko’ra nomlagan.

Kognitiv-semantik tahlil tishunoslikda o’z usullariga ega. Metaforik ma’noda til sohiblarining mental tafakkuri va lisoniy ong tahlili hamda bahosi aks etadi. L.Lakoff va M.Jonsonlarning konseptual modellariga ko’ra metaforik ko’chish bir konseptual maydondan ikkinchiga o’tishni ta’minlaydigan kognitiv operatsiyani amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Bunda ikkita kognitiv maydon – manba maydoni (source domain) va maqsad maydoni (target domain) ishtirok etadi. Farmatsevtika terminlari konseptual metafora manba maydonini maqsad maydoniga moslashtirish orqali yuzaga keladi:



Ingliz va o’zbek tillaridagi farq dorivor o’simlik nomlarida ham kuzatiladi. Dorivor o’simlik nomlarining yuzaga kelishida ko’chish hodisalari muhim o’rin tutadi. Ko’chish, o’xshatish hodisalarida ingliz va o’zbek xalqining farqli dunyoqarashi va baho munosabatlari namoyon bo’ladi. Masalan, *bistort* /ilonsimon toron. Bistort “ikki marta qayrilgan” degan ma’noni bildiradi, o’simlik ildizi qayrilgan shaklga ega bo’lgani uchun shu nom bilan atalgan. O’zbek tilida dorivor o’simlik unga o’xhash shakldagi zoonim bilan ifodalangan.

Shifobaxsh giyohlar nomi ham xalq tafakkuri bilan bog’liq. *Fennel flower qora sedananing* inglizcha nomi bo’lib, “somon gul” degan lug’aviy ma’noni ifodalaydi. Ingliz madaniyatida dorivor o’simlik gulining maydaligi, ingichka, nozikligi e’tiborga olingan bo’lsa, o’zbek tilida ko’rinish, rang belgisi asosiy e’tiborda bo’lgan.

Horse-tail /qirqbo’g’im. Horse-tail “otning dumiga o’xhash” ma’nosini ifodalaydi. Ingliz xalqi o’simlikni hayvon tana a’zosiga o’xhashligiga ko’ra nomlagan. O’zbek xalqi o’simlikning ko’p bo’g’imdan iborat ko’rinishiga asoslanib nomlagan. Ingliz tilidagi terminning kognitiv sxemasi quyidagicha:

HAYVON → O'SIMLIK
manba maydoni maqsad maydoni
HORSE-TAIL DORIVOR GIYOH
HAYVON TANA
QISMINING KO'RINISHI

Inglizcha *HORSE* "hayvon" konseptining kognitiv maydoniga kiradi. Hayvon kognitiv maydoni manba sohasi sifatida o'simlik maydoniga maqsad sohasi sifatida moslashtirilgan. O'zaro moslik assosida *horse-tail* "dorivor giyoh" konseptining maqsad maydonida o'z o'rniaga ega bo'ladi.

Hozirgi ingliz va o'zbek tillaridagi dori nomlarida o'zlashma qatlam ko'p miqdorni tashkil etadi. Ingliz tilida grekcha, yunoncha, lotincha so'zlar farmatsevtika terminlariga asos bo'lsa, o'zbek tilida grekcha, yunoncha, lotincha o'zlashmalardan tashqari arabcha, forscha-tojikcha o'zlashmalar ko'p uchraydi. O'z qatlamga oid farmatsevtika terminlari qadimgi tarixiy manbalarda faol kuzatiladi.

Ingliz va o'zbek tilidagi farmatsevtika terminlari turli manbalarda jamlangan. Ingliz tilidagi dori nomlari lug'atlarda, ingliz tili milliy korpuslarida o'z ifodasini topgan. O'zbek tilidagi dori nomlari qomusiy olimlar asarlarida, tarixiy-badiiy manbalarda, tarixiy va zamonaviy lug'atlarda jamlangan. Qomusiy olimlar yaratgan asarlar va tarixiy-badiiy yodgorliklardagi dori nomlari xalq turmush tajribasi, tibbiy dunyoqarashi, bilimini jamlagan muhim manbalar hisoblanadi. Qomusiy olimlarning asarlari nafaqat turkiy tillar, balki dunyoning qadimda rivojlangan tillariga oid farmatsevtika tushunchalarini jamlagani bilan ham e'tiborga molikdir.

Farmatsevtika terminlarining asosiy manbalari

Tibbiy tushunchalarning izohiga doir qadimgi manbalar sifatida Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari" [Abu Ali Ibn Sino, 1992], Abu Bakr Ar-Roziy [Abu Bakr Ar-Roziy, 1994] asarlari tilga olinadi. Xususan, Ibn Sinoning dorishunoslikka qo'shgan hissasi nihoyatda salmoqlidir. U taklif etgan dorilar asrlar davomida keng ishlatalib keldi va hozir ham ularning ko'pi o'z qiymatini yo'qotgan emas [Suyunov 2023, 23].

Qomusiy olimlarning tibbiyotga oid asarlarida kasallik turlari, belgilari, davolash jarayoni, turlari, vositalari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

"Tib qonunlari" farmatsevtika terminlari aks etgan birlamchi manba hisoblanadi. Unda IX-X asrlarda faol qo'llangan dori

nomlari o'z ifodasini topgan: *šalisa* (*shaliso*) – umumiy holatni yaxshilashga qaratilgan dori [Abu Ali Ibn Sino 1992, 29]; *taryaq* (*taryoq*) – zaharlanishga qarshi murakkab tarkibli dori [Abu Ali Ibn Sino 1992, 234]. *Mitridus* – murakkab tarkibli dori, yaratuvchisining nomi bilan atalgan [Abu Ali Ibn Sino 1992, 235].

Abu Rayhon Beruniy 1048-yilda dorivor o'simliklar, hayvonlar, ma'danlar tavsifiga bag'ishlangan "Saydana" asarini yozdi. "Saydana"da dorivor moddalarning bir necha tillardagi nomlari keltirilgan. Bu asarning lingvistik qiymati shundaki, unda bir tushunchani ifodalovchi bir necha so'z, modda nomining xalq tilidagi, shevalardagi variantlari keltirilgan [Nurmonov 2002, 15].

"Saydana" asarini yozish uchun muallif yoshligidan dunyoning turli mintaqalarida ko'rghan va yozib olgan ma'lumotlari asosida dorivor moddalarni jamlagan. O'zigacha bo'lgan olimlarning dorivor moddalar haqidagi fikrlarini ham asos sifatida to'plagan. Dunyoning mashhur olimlari asarlarida uchragan dorivor moddalar nomini umumlashtirgan. Ba'zi dori vositalarini bevosita shaxslar og'zidan yozib olganini o'zi qayd etadi [Beruniy 1974, 17].

"Saydana" besh bobdan iborat asar bo'lib, har bir dori nomi aohida paragrafda izohlangan.

1-bobda "Saydana" va uning mazmun-mohiyati yoritilgan. "Saydana"ning hozirgi farmakogniziya sohasiga teng keladigan xususiyatlari tavsiflangan.

2-bobda dori nomlarini sodda va murakkabga ajratilgan. *Aqoqir* so'zini Beruniy sodda dorilar jamlanmasi uchun qo'llagan. Bobda hindlarning davo usullari, xususan, zahar bilan davolash tartibi haqida ma'lumot berilgan.

3-bobda dori vositalarining bir-biri o'rnida qo'llanishi haqida muhim qaydlar keltirilgan. Mazkur bobda Beruniy greklarning tibbiyotdagi yutug'ini alohida ta'kidlaydi. Sharq xalqlaridan esa hindlarning tibbiyot borasidagi faolligini qayd etadi. Shu o'rinda hindlar bilan bo'lgan madaniy munosabatlar haqida so'z yuritadi.

4-bobda Beruniy fors va arab tillari haqida mulohaza bildiradi. Fors tilini badiiyat tili sifatida, arab tilini ilm-fan sifatida qayd etadi. Dorishunoslik taraqqiyotida ham arab tilining ifodalash imkoniyatini ko'radi. O'z navbatida, arab tilining murakkabligini, boshqa tildagi dori nomlarini aks ettirishda muammolarga sabab bo'lishini qayd etadi.

5-bobda o'simliklarning grekcha nomi bilan bog'liq fikr-mulohazalar aks etgan. "Saydana" asarini yozishda tayanilgan

manbalar qayd etilgan [Abu Rayhon Beruniy 1974, 17].

Asar so'ngida "Saydana"dagi dori nomlarining alfavit tartibidagi izohi keltirilgan. Masalan, yog' ko'rinishidagi dori vositalari *duxn* deb keltirgan. Olim dorivor yog'larning turi ko'pligini, har biri alohida xususiyatga egaligini qayd etgan. Balzam yog'ining issiq va ikkinchi darajada quruqligini yozgan. Kleshevin yog'ining ikkinchi darajadagi issiqligi va birinchi darajadagi quruqligi, erituvchi kuchga egaligini qayd etgan. Galenning sholg'om urug'i va kleshevin yog'i teng kuchga ega ekanligi, faqat sholg'om urug'i yog'ining kleshevin yog'idan issiqroq ekanligini aytgani haqida ma'lumot keltirilgan. Foydasiga ko'ra hech bir yog' sholg'om urug'i yog'ichalik eski zaytun yog'iga yaqin emasligini ta'kidlaydi. Shuning uchun zaytun yog'ini topish mushkul bo'lgan hollarda sholg'om urug'i yog'idan foydalanishlarini qayd etgan [Beruniy 1974, 463].

Dori nomlari mumtoz tarixiy-badiiy matndagi, lug'atlardagi tibbiy terminlar orasida asosiy semantik guruhni tashkil etadi.

DTS (Qadimgi turkiy lug'at)da quyidagi dori nomlari uchraydi: *ot* - "dori" (DTS, 373), *urayun* - "hind dorilaridan birining nomi, qaynoq sharbat" (DTS, 614), *xasni* "Hindistondan keltiriladigan dori", *ötrüm* - "surgi dori" (DLT, I, 131), *ipwi* "davolashda qo'llanadigan hindcha dori (DLT, I, 148), *mitridus* - dori qorishmasi nomi (DTS, 338), *ma'zun* - "dori aralashmasi" (DTS, 339); *darman* - "dori" (DTS, 159), *tirjaq* - "hayvon va hasharotlar zahriga qarshi dori" (DTS, 563).

"Qutadg'u bilig"da quyidagi terminlar qayd etilgan: *ögít* "za'faronga bir necha xil ashyolar qo'shib tayyorlanadigan dori", *guvariš*, *ma'žun* dorivor giyohlardan tayyorlanadigan dori nomlarini ifoda etgan; *güvariş* (guvorish) - ovqat hazm qiladigan dori; *terāñbin* "bo'shatuvchi, tozalovchi dori" (QBN, 5885). *Terāñbin* (tarangbin) - yaproqda paydo bo'ladigan shira, surgi dori sifatida foydalanilgan. *Sikanjabin* "sirka murabbo"ni anglatgan [Xolmurodova 2019, 17-78].

"Boburnoma"da qayd etilgan dori hamda dorivor giyoh nomlari: *basit* - "qizdiruvchi dori" (BAL, 15); *mus'hil* - "surgi dori" (BAL, 88), *mustahil* a. "yengillatuvchi, suradigan, yuvib ketadigan, me'dani tozalaydigan" dori (NAL, 424), *adviya* - "davolar, dorilar" (BAL, 6), *yabruhus-sanam* "mehrigiyoh" "mandragora" (TRS, 228). *qulan quyrug'i*, *ko'k shiboq* "birgalikda qo'llanganda jonzotlarni karaxt holga keltiradigan o't": *murch* "tropik o'simlik va uning ziravor sifatida ishlataladigan dumaloq mevasi, urug'i" (O'TIL, I, 482); "qora qalampir" (TRS, 241), *buxor* "bug'", "bug'lanish"

(TRS, 86), *aqoqir* "shifobaxsh o'simlik ildizi" (BAL, 12); *doruyi kor, marham* "malham"; "dorivor qorishma, "dorivor maz" (TRS, 217), *simob* f. "dori sifatida iste'mol qilingan aralashma"; *rtut* (TRS, 358), *jullob* "gulob, gul suvi (shirasi) bilan asal yoki shakarni aralashtirib tayyorlangan sharbat" (NAL, 235), *ma'jun* a. tinchlantiruvchi sifatida iste'mol qilingan, "dorivor qorishma"; *ma'zun* "lekarstvennaya smes" (DTS, 339); *gili maxtum; taryoqi foruq* - ziddi zahar [Xolmanova 2021, 145].

Farmatsevtika terminlarining tarixiy manablardagi, lug'atlardagi ko'rinishlari ilmiy tadqiqotlarda tahlil qilingan.

Xulosa

1. Ingliz va o'zbek tillari farmakognoziyasi o'z taraqqiyot yo'li, tarixiy rivojlanish bosqichlari, tarixiy, zamonaviy manbalariga ega. Har ikki tildagi farmatsevtika terminlari hozirgi zamon terminologiya tizimida sohaning asosiy tushunchaviy-terminologik apparati sifatida axborot berishga xizmat qiladi. Shuning barobarida dori nomlari ingliz va o'zbek xalqlarining tibbiy dunyoqarashi, bilimi, tafakkuri, dorishunoslikdagi ko'nikma, malakalari haqida ma'lumot beruvchi lingvokognitiv axborot manbayi hamdir. Ingliz va o'zbek tillaridagi farmatsevtika terminlarining universal va unikal belgilari, lingvokognitiv xususiyatlari, til sohibining tafakkuri, idroki bilan bog'liq jihatlari monografik tadqiqotlarda tizimli ravishda aniqlanadi.

2. Farmatsevtika yo'nalishidagi tadqiqotlar, asosan, lingvistik aspektida amalga oshirilgan izlanishlar bo'lib, dori nomlarini struktur-semantik, grammatik-morfologik, funksional jihatdan tavsiflashga qaratilgan. Dori nomlarining til sohibi tafakkuri, bahosi bilan bog'liq xususiyatlarini tahlil qilish ingliz va o'zbek farmatsevtika terminlari tadqiqidagi dolzarb vazifalardan biridir. Ingliz-o'zbek farmatsevtika terminlarining kognitiv-semantik tahlili til sohiblarining tibbiy bilimi, tafakkuri, kuzatish va tajribalari asosidagi umumiyligi va farqli belgilarni ajratishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan bir qatorda kasallikni davolash usullari, vositalari, davo choralar haqida ham qo'shimcha bilim berishga xizmat qiladi.

3. Ingliz tili farmatsevtika terminlari tarixiy va zamonaviy lug'atlarda jamlangan. Ingliz tilining milliy korpuslari, WorNet tezaurusi farmatsevtika terminlari jamlangan asosiy ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. Bu jihatdan ingliz tili farmatsevtikaga oid tadqiqotlar uchun qulay imkoniyatlarga ega.

4. O'zbek tilidagi dori nomlari qomusiy olimlar asarlarida, tarixiy-badiiy manbalarda, tarixiy-zamonaviy lug'atlarda aks etgan bo'lib, xalqning farmakogniziyyaga doir qarashlarini o'zida jamlagan. Qomusiy olimlarning tibbiyotga, farmakogniziyyaga doir asarlari dunyo miqyosidagi farmatsevtika terminlari haqida ma'lumot beruvchi muhim manbalar hisoblanadi. Bu asarlarda eng qadimgi muolaja usullari, dori nomlari, mashhur tabiblarning ko'rsatmalari, fikr-mulohazalari o'z ifodasini topgan. Bu manbalar dori nomlarning bir necha tillardagi muqobili keltirilgani bilan alohida qiymatga egadir. Dori nomlarining mahalliy shevalarda ifodalananish shaklining keltirilishi, dori nomlari asosida sheva so'zlarining jamlangani ham bu asarlarning lingvistik qiymati tengsiz ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda o'zbek tilida farmatsevtika terminlarining miqdor jihatdan ko'pligini ta'minlaydi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi farmatsevtika terminlariga oid quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. Ingliz va o'zbek tillaridagi farmatsevtika terminlarini kognitiv-semantik aspektida tahlil qilishda ingliz tilidagi mavjud dori nomlarining statistikasini aniqlash, o'z va o'zlashgan qatlam so'zlari nisbatini belgilash, o'zbek tilidagi dori nomlariga munosabatini tahlil qilish har ikki tildagi dori nomlarini tizimlashtirish imkonini beradi.

2. O'zbek tilining qomusiy, tarixiy-badiiy manbalaridagi dori nomlarini jamlash, ma'lumotlar bazasini shakllantirish, milliy korpus, parallel korpus, tezaururuslarning lingvistik ta'minotini yaratish o'zbek tilining nufuzi va mavqeyini oshirishdagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

3. Qomusiy manbalardagi dori nomlarini tizimlashtirish, ingliz tilidagi va xalqaro farmatsevtika tizimidagi nomini aniqlash, etimologik xususiyatlarini yoritish va tahlil qilish farmatsevtika asoslarini tushuntirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

- Abdulxairova, F. 2021. *O'zbek tilida tibbiyot atamalarining metaforik manzarasi*. Filol. fan. fals. dok. (PhD) ... diss. Toshkent.
- Abu Ali ibn Sino. 1992. *Tib qonunlari*. V kitob. Toshkent.
- Abu Bakr Ar-Roziy. 1994. *Kasalliklar tarixi*. Toshkent: Xalq merosi.
- Abu Rayhon Beruniy. 1974. *Tanlangan asarlar*. Kitab as-saydana fit-tibbi. Фармакогнезия в медицине. IV. Toshkent: Fan.
- Величкова, С.М. 2006. Структурно-семантические особенности медицинской терминологии в сфере стоматологии (на материале русского и немецкого языков). Дисс. канд. филол. наук. Москва.

- Israilova, M. 2018. *Lotin tilini o'qitish jarayonida tibbiyot oliv ta'l'muassasasi talabalarini intellektual-madaniy rivojantirishning didaktik asoslarini takomillashtirish*. Ped. fan...fals. dok.(PhD) diss. avtoref. Toshkent.
- Yaxshiboyeva, G. 2023. *Farmatsevtikaga oid terminlarni o'rgatishda o'qish va yozish malakalarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari*. Ped. fan... fals. dok. (PhD) avtoref. Toshkent.
- Касымов, А. 1982. *Фармацевтическая терминология в современном узбекском языке*. Ташкент.
- Mirahmedova, Z. 2010. *O'zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari*. Toshkent: Fan.
- Нейфах, Б. 1996. *О немецкой фармацевтической терминологии*. Дисс. канд. филол. наук. Казан.
- Nurmonov, A. 2002. *O'zbek tilshunosligi tarixi*. Toshkent: O'zbekiston.
- Ознигин, М.В. 2010. *Роль метафоры в структурировании и функционировании терминологии*. Дисс.... канд. филол. наук. Саратов.
- Saidnomanov, A. 2020. "Tibbiyot terminologiyasi haqida". *Izlanish samaralari*, 2: 32-34. O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti.
- Suyunov, B. 2023. *Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi*. Filol. fan. dok. ...diss. Toshkent.
- Xolmanova, Z. 2021. "Boburnoma" - til qomusi. Toshkent: Akademnashr.
- Xolmuradova, M. 2019. "Qutadg'u bilig" leksikasi. Filol.fan....fals. dok. (PhD) diss. Toshkent.
- Xudoqulova, D. 2022. *Farmatsevtik terminlarning leksikografik va funksional-semantik tadqiqi (ingliz, rus, o'zbek tillari misolida)*. Buxoro.
- Хусанов, А. 1982. *Названия болезней и их симптомов в узбекском языке*. Дисс. канд. филол. наук. Тошкент.
- Чернявский, М.Н. 1996. О состоянии древнегреческой фармацевтической терминологии по трудам Гиппократа. дисс. канд. филол.наук. Москва.

Shartli qisqartmalar

